



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
RENESSANS TA‘LIM UNIVERSITETI
“IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR” KAFEDRASI**



**“JAMIYAT TARAQQIYOTI VA IJTIMOIY-SIYOSIY
BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA IJTIMOIY-
GUMANITAR FANLARNING O‘RNI”**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY KONFERENSIYASI
TO‘PLAMI**

2025-yil 19-may

Toshkent – 2025

4. Qarang: Ахборот-ресурс ва ахборот-кутубхона марказлари// <https://stat.uz/uz/statinfo/ijtimoiy-soha/statistik-jadvallar-sotsfera>.

5. Отеулиев А. О'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish konsepsiyasi asoslari.// <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-economy-uz/2859>.

6. Чориев А.Ч. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс.Иккинчи китоб.- Т.: Chinor ENK, 2002.- Б.224.

7. Сохибова, Л. Ж. (2021). КУЛЬТУРНЫЙ УРОВЕНЬ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ДИАЛЕКТИКА СТАБИЛЬНОСТИ И ИЗМЕНЕНИЙ. *Ответственный редактор*, 45.

8. Сохибова, Л. (2023). ШАХС МАДАНИЙ САВИЯСИ–МАДАНИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ИФОДАСИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/2), 220-224.

FUQAROLIK MILLATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Akramov Jaxongir Djumanazarovich,

О'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Xalqaro munosabatlar” kafedrasida dotsenti v.b.,

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

So'nggi yillarda butun dunyoni qamrab olgan turli geosiyosiy va geomafkuraviy konfliktlar Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston jamiyatiga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Bunday holatda jamiyatimizda mafkuraviy qutblashishga yo'l qo'yimaslik, har qanday mafkuraviy-axborot tahdidlariga ijtimoiy to'liqlanishlarning oldini olish, shuningdek, “O'zbekiston – 2030” strategiyasida 38-raqam bilan belgilangan “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash”¹⁶⁹ maqsadini amalga oshirish uchun fuqarolik millatini shakllantirishning ilmiy-siyosiy asoslarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik millati tushunchasini o'rganishda identiklik masalasiga to'xtalib o'tish joiz.

Insonning, shaxsning jamiyatga, guruhga mansubligi va munosabatlari masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Inson doimo “Men kimman?” degan savolga javob izlaydi va o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan odamlarning turli guruhlari va shu bilan birga tarix, an'analar, madaniyat bilan bog'liqligini saralaydi. Bugungi kunda “identiklik” atamasi siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, etnosiyosat, falsafa va

¹⁶⁹ O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.

iqtisodiyotda ilmiy kategoriya sifatida keng qo'llaniladi. "Identiklik" tushunchasiga ko'plab yondashuvlar mavjud. Atamalar lug'atida identiklik tushunchasiga 40 dan ortiq ta'riflar berilgan. Shuning uchun bu atamaning ma'nosini tushunish muhimdir.

Identiklik – bu inson psixikasining xususiyati bo'lib, u o'zi uchun muhim bo'lgan ma'lum bir guruh yoki jamoaga tegishlilikini qanday tasavvur qilishini uning uchun jamlangan shaklda ifodalaydi. "Identiklik" atamasi lotincha identifico so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "aniqlayman" degan ma'noni anglatadi. Psixologlar identiklikni obyektning (subyektning) boshqa obyektga (subyektga) bir qism va bir butun sifatida tegishlilikini tushunish sifatida izohlaydilar¹⁷⁰.

"Identiklik" insonning sotsializatsiya jarayonida ular bilan identifikatsiya qilish natijasida shakllangan ma'lum ijtimoiy guruhlariga mansublik tajribasini, shuningdek, boshqa shaxslar va guruhlardan farqlari, xatti-harakatlari, qadriyat yo'nalishlari va boshqalar haqidagi g'oyalarni o'z ichiga oladi. "Identiklik"ning mohiyatan yadrosi bu o'zini muayyan ijtimoiy-madaniy va etnik guruhlariga, davlat hamjamiyatiga nisbat berish, "boshqalar" haqidagi g'oyalarga nisbatan o'z guruhi ("biz" qiyofasi) haqidagi stereotipik g'oyalarni qabul qilishdir.

Identifikatsiya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan yo'nalishga qarab (kasbiy yoki etnik guruh, mintaqa, siyosiy harakat va boshqalar), shuningdek, ijtimoiy identiklikning har xil turlarini ajratish mumkin:

- professional (konchi, muhandis, shifokor, sportchi va boshqalar);
- etnik (o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, turkman, rus va boshqalar);
- mintaqaviy (vodiy, voha, poytaxt va boshqalar);
- siyosiy (demokrat, kommunist, millatchi, liberal va boshqalar).

Etnik identiklik – ijtimoiy identiklikning bir turi. Etnik identiklik – bu shaxsning ma'lum bir etnik guruhga mansubligini anglashi. Etnik guruh va millat turli xil ijtimoiy hodisalardir. Etnik guruh odamlarning ijtimoiy-madaniy birlashmasi, millat esa davlat bilan bog'langan ijtimoiy-siyosiy jamoadir. Millat (fuqarolik identikligi) – ma'lum bir hududda yashovchi, umumiy tarix va madaniyatga ega bo'lgan, o'zini o'zi boshqarishga intiladigan odamlar guruhidir.

Etnik identiklikni milliy (fuqarolik) identiklikdan ajratib ko'rsatish kerak, bunda shaxslar o'zlarini millatning bir qismi – uning mavjudligining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillarini mustaqil ravishda yaratish va qayta yaratishga qodir bo'lgan ijtimoiy guruh deb bilishadi. Milliy (fuqarolik) identiklik ma'lum bir siyosiy (milliy davlat) va madaniy (milliy madaniyat) jamiyati (o'zbekistonliklar, hindlar, kanadaliklar, avstraliyaliklar, shveytsariyaliklar, indoneziyaliklar, belgiyaliklar, amerikaliklar va boshqalar) bilan o'zini identifikatsiya qilishni nazarda tutadi.

Fuqarolikni aniqlashning ikkita konseptual yondashuvi mavjud:

¹⁷⁰ Идентичность: личность, общество, политика. Новые контуры исследовательского поля. Монография / Ответственный редактор член-корреспондент РАН Семененко И.С. – Москва: Издательство «Весь Мир», 2023. – Стр. 12.

- 1) “etnik yondashuv” davlat qurishning asoslari sifatida bir tilning hukmronligi, son jihatdan bir dominant madaniyat elementlarining keng tarqalganligi, hukmron guruh tarixiga tayanish hisoblanadi;
- 2) “fuqarolik yondashuvi” yoki “millat-davlat” modeli, bunda asosiy masala shaxsning ma’lum bir mamlakat fuqaroligiga egaligi, inson huquqlarining ustuvorligi va fuqaroning etnik mansubligidan qat’i nazar, teng imkoniyatlar yaratilishi, bu shaxsning subyektiv ta’rifining predmeti hisoblanadi. Ushbu yondashuvning bir qismi, masalan, pasportlarda millatni ko’rsatish amaliyotidan voz kechishni o’z ichiga oladi¹⁷¹. O’zbekiston Respublikasi aynan ushbu yondashuvni yondashuvini tanladi.

Etnik va milliy identiklikni shakllantirishga bir qator omillar ta’sir ko’rsatadi. Eng muhim madaniy omillar – din, san’at, an’analar, urf-odatlar, kiyim-kechak va ovqatlanish xususiyatlari, etnik guruh a’zolarining xulq-atvori va boshqalar.

Lug’atlar fuqarolik identikligining ikki tomonlama talqinini beradi: birinchisi – shaxsning ma’lum bir jamoaga mansubligini anglashi; ikkinchisi – jamoaviy ong hodisasi.

Fuqarolik identikligi guruhiy o’zini o’zi anglashning asosi bo’lib, mamlakat aholisini birlashtiradi va davlat barqarorligining kalitidir. Fuqarolik identikligi g’oyasi xalqlarning etnik o’ziga xosligini saqlab, birlashishga imkon beradi.

Fuqarolik identikligining shakllanishi nafaqat fuqarolik mansubligi fakti bilan, balki bu tegishlilik bilan bog’liq bo’lgan munosabat va tajriba orqali belgilanadi. Fuqarolik identikligi boshqa odamlar bilan aloqa o’rnatish zarurati bilan chambarchas bog’liq bo’lib, nafaqat shaxsning o’zining fuqarolik hamjamiyatiga mansubligini anglashini, balki ushbu jamiyatning ahamiyatini idrok etishni, ushbu birlashmaning tamoyillari va asoslarini tushunishni, fuqaroning xatti-harakatlar modelini qabul qilishni, fuqarolar faoliyatining maqsadi va motivlarini tushunishni o’z ichiga oladi.

Fuqarolik identikligini shakllantirish va qo’llab-quvvatlash omillari orasida eng muhimlari quyidagilardir:

1. joriy jamoaning mavjudligini ildiz otgan va qonuniylashtiradigan hamda afsonalar, rivoyatlar va ramzlarda takrorlangan umumiy tarixiy o’tmishi (umumiy taqdiri);
2. fuqarolik jamiyatining o’zini o’zi belgilashi;
3. muloqot vositasi va umumiy ma’no hamda qadriyatlarni rivojlantirish sharti bo’lgan umumiy til;
4. birgalikda yashashning ma’lum tajribasiga asoslangan, jamoa ichidagi munosabatlarning asosiy tamoyillarini va uning institutsional tuzilishini belgilovchi umumiy madaniyat (siyosiy, huquqiy, iqtisodiy);

¹⁷¹ Мусаев И. М., Гаджиева А. А. Государственно-гражданская политическая идентичность: теория и опыт формирования // Социально-политические науки. 2018. №1. – Стр. 17.

5. joriy jamiyatning, ayniqsa, real siyosiy harakatlar bilan bog‘liq umumiy hissiy holatlar tajribasi¹⁷².

Fuqarolik identikligi bu shaxsning ma’lum bir fuqarolik jamiyatiga mansubligini tan olish, shu jumladan o‘z mansubligini majburiy anglash va ushbu jamiyatga muvofiq adekvat harakatlardir.

Shaxsning fuqarolik identikligi konstruktsiyasi zamonaviy fanda milliy o‘z-o‘zini anglash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshash tushunchalar orqali ishlab chiqilgan: umumiy fuqarolik, davlat, milliy, davlat-fuqarolik identikligi. Hozirgi vaqtda siyosatshunoslar orasida identiklikni o‘rganishga uchta asosiy yondashuv shakllangan: primordializm, konstruktivizm va instrumentalizm. Biroq tadqiqotchilarning aksariyati hozirda integratsiyalashgan yondashuvga amal qilishadi.

1. Primordializm (lotincha *primordialis* — “asl”, “boshlang‘ich”, “birinchi”) gumanitar fanlardagi nazariy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, madaniy jihatdan o‘ziga xos va ijtimoiy guruhlarini (masalan, etnik va irqiy) odamlarning asl, majburiy va umuminsoniy birlashuvi deb hisoblaydi. Etnik kelib chiqishi umumiy kelib chiqishiga asoslanadi, tug‘ilish bilan belgilanadi va o‘zgarmaydi. Bitta etnik guruh vakillari umumiy biologik va madaniy xususiyatlarga ega. Millat tug‘ilgan paytdan boshlab ota-onadan meros bo‘lib o‘tadi. Ota-onadan meros bo‘lib qolgan millat hayot davomida o‘zgarmaydi. Etnik identiklik shaxsning tug‘ilishida qabul qilinadigan qat’iy belgilangan xususiyat sifatida qaraladi. Unga sinfiy yoki siyosiy omillar ta’sir qilmaydi.

Nazariyaning tanqidi. Bu nazariyaning moslashuvchan emasligi evolyutsion rivojlanish va turli omillar ta’sirida namoyon bo‘ladi. Amalga oshirish jarayonida nizolar, inqiloblar va parchalanishlarni keltirib chiqaradigan yuqori darajadagi nizolar aniqlanadi. Bu etnik guruhning dastlabki shakllanishi davridagina xosdir.

Siyosatdagi primordializm. Zamonaviy ilmiy dunyoda primordializm endi etakchi tushuncha emas. Biroq vaqti-vaqti bilan u ba’zi siyosatchilar va olimlar orasida mashhurlikka erishadi. Primordialistlarning pozitsiyalari, ayniqsa, etnomilliy harakatlar mafkuralariga tayanadigan va fuqarolik ko‘p millatli millat nazariyasiga faol qarshilik ko‘rsatuvchi siyosatchilar orasida kuchli.

2. Konstruktivizm. Ushbu yondashuv muayyan subyektlar tomonidan kerak bo‘lganda identifikatsiyani qurish va o‘zgartirish imkoniyatiga asoslanadi. Millat jamiyat tomonidan uning ehtiyojlariga qarab yaratiladi. Milliy chegaralar ham o‘zgarishi mumkin. 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanganidan so‘ng, konstruktivistik g‘oyalar tarqala boshladi va yangi mustaqil postsovet davlatlarida o‘z izdoshlarini topdi.

Nazariyaning tanqidi. Konstruktivizm millatning shakllanishida madaniy omillarning rolini e’tiborsiz qoldiradi, ijtimoiy qurilish imkoniyatlarini bo‘rttirib ko‘rsatadi va siyosiy hamda iqtisodiy omillarning roliga etarlicha e’tibor bermaydi.

Siyosatdagi konstruktivizm. Konstruktivizm zamonaviy ijtimoiy fanlarning umumiy modeli/standarti/shablони bo‘lib, uning ma’nosi shundaki, inson hayotining

¹⁷² Cooper F. *Citizenship, Inequality, and Difference: Historical Perspectives.* – Wiley. 2018. – P. 124.

tashqi obyektiv holatlari sifatida ko'rsatilgan ijtimoiy institutlar aslida uning mahsuli hisoblanadi. Ko'pgina mualliflar "milliy ziyolilarning madaniyatni yaratish va barpo etish, "an'analar o'ylab topish" va xalq orasida milliy o'zlikni anglashdagi faoliyatini" xuddi shunday ta'riflaydilar. Amalda faqat bir nechta mutaxassislar konstruktivizm izdoshlaridir.

3. Instrumentalizm etniklikni har xil turdagi siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Instrumentalizmga ko'ra, etnik identiklik situatsion rol, siyosiy hokimiyat yoki iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun shaxs yoki odamlar guruhi tomonidan ongli ravishda tanlanishidir.

Nazariyaning tanqidi. Biroq konstruktivizm singari, u etniklik asos bo'lgan birlamchi madaniy omillar rolini e'tiborsiz qoldiradi va siyosiy hamda iqtisodiy omillarning rolini bo'rttirib ko'rsatadi.

Siyosatdagi instrumentalizm. Etniklik siyosiy hokimiyat uchun kurash, mavqeni mustahkamlash, boylikni oshirish, ijtimoiy nazorat, siyosiy safarbarlik va boshqalarda vosita sifatida ko'riladi.

4. Integratsiyalashgan yondashuv. Ko'pgina tadqiqotchilar yuqoridagi yondashuvlarni birlashtirishga harakat qilishadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, yuqorida ko'rib chiqilgan yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi bo'lishi kerak. Millat o'zining biologik va madaniy xususiyatlariga qarab, umumiy kelib chiqishi asosida, etnik guruhlarining iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga, madaniy omillarga (til, din, urf-odat va urf-odatlarga) muvofiq ravishda quriladi. Shaxsning xohish va ehtiyojlarini hisobga olish kerak. Ushbu yondashuv yuqorida tavsiflangan barcha yondashuvlarni birlashtiradi¹⁷³.

Identiklik o'zining turli yo'nalishlarida – davlat-fuqarolik, milliy, hududiy, etnik va hatto sivilizatsiyaviy – ijtimoiy rivojlanish kun tartibini shakllantirishda ishtirok etuvchi siyosiy kuchlarning ta'sir obyektiga aylanadi. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari tizimida bugungi kunda identiklik muhim o'rin tutadi. Jamiyatda ijtimoiy totuvlikni saqlashni va rivojlanish siyosatini amalga oshirishni ta'minlashga qodir bo'lgan resursga aylanish potentsialini tan olish bugungi kunda O'zbekiston siyosiy diskursida, jumladan, hududlarni rivojlantirish dasturlarida, ijtimoiy-madaniy siyosatning ustuvor yo'nalishlarida, ijtimoiylashtirish institutlari faoliyatida, birinchi navbatda, ta'lim sohasida tobora ko'proq aks etmoqda.

¹⁷³ Политическая идентичность и политика идентичности. В двух томах. Т.2: Идентичность и социально-политические изменения в XXI веке. Отв. ред. И.С. Семененко. - М., Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН). 2012. – Стр. 81.

66	Tokhirova Shokhsanam Farkhod qizi- Digital information and information activities as objects of public law regulation of management activities in the conditions of digitalization	291
67	Isaqulova Sabina Otamurod qizi- 2024-yildagi iqtisodiy muammolar: global silkinishlar va o'zbekiston misolida tahlil	294
68	Ismatova Sarvinoz Alisher qizi – Burxoniddin marg'inoniy huquq falsafasining yirik namoyandasi (“Al-Hidoya” asari asosida falsafiy – mantiqiy tahlil)	297
69	Xusanboyeva Shaxzodaxon Foziljon qizi , Sadikova Roza Ismailovna – Falsafa fanidan mustaqil ishni tashkil etish	302
70	Abdunasirova Xalima Erdtillayeva- Raqamli ta'lim muammolari	306
71	Ismoilov S.-O'rta Osiyo va Afg'oniston munosabatlari	309
72	Xaitiboyev Shohjaxon- Sun'iy intellekt: zamonaviy hayotning strategik omili	312
73	Eshonqulova Surayyo Ilxom qizi- O'quvchilarini odam savdosiga qarshi tarbiyalash dolzarb muammo sifatida	315
74	Shodiyeva N.N.- Talabalarda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirishning bugungi kundagi ahamiyati	317
76	Turaboeva Zilola, Kenjaev Baxtiyor- IX-X asrlarda termiz somoniylar davrida ilmiy va diniy markaz sifatida rivojlanishi	320
77	Anvar Yaxshiev- Davlat xizmatchisining axloqiy sifatleri: mulohaza va tahlil	328
78	Soxibova Lola Joniboevna- Shaxs madaniy saviyasining progressiv xususiyatlari	333
79	Akramov Jaxongir Djumanazarovich- Fuqarolik millatini shakllantirishning nazariy asoslari	336
80	Bo'tayeva Nigora Abdumannonovna – Mumtoz adabiyot an'alarining komil xorazmiy ijodida aks etishi. Adabiy ta'sir va izdoshlik.	341
81	Abdurasulov Olimjon Avalbayevich, Amanov Adiljon Karimovich – Texnika falsafasining vujudga kelish tarixi va asosiy vazifalari	345
82	Tursunova Olmos Fayzievna- Falsafiy va milliy ta'lim-tarbiyaning uyg'unligi	351
83	Туленова Кариме Жандаровна, Василева Евгения Вениаминовна- Методология применения цифровизации в образовательных процессах	356
84	Rustamova Ozoda- Markaziy osiyodagi migratsion jarayonlarning ijtimoiy-falsafiy tadqiqoti	359
85	Xamzayev Xaqnazar Xushmirzayevich- Dasturiy vositalar bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish asosi sifida	363
86	Axmedov Jo'raboy Raxmonberdiyevich- Bo'lajak muhandislarni axborot ta'lim muhiti yordamida motivatsiyasini shakllantirish	367
87	Temirov Humoyunmirzo Najmiddinovich- O'zbekiston ta'lim tizimidagi korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy sabablari	369